

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**DAVRONOV SAXOBIDDIN FAXRIDDINOVICH**

**TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO‘LLAB-  
QUVVATLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
economical sciences**

**Davronov Saxobiddin Faxriddinovich**

Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish..... 3

**Давронов Сахобиддин Фахриддинович**

Совершенствование механизма финансовой поддержки субъектов предпринимательства..... 29

**Davronov Saxobiddin Faxriddinovich**

Improvement of the financial support mechanism for business entities..... 57

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 61

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**DAVRONOV SAXOBIDDIN FAXRIDDINOVICH**

**TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-  
QUVVATLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

Filsofa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/1q13745 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Xudoyqulov Xurshid Xurramovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Alimardonov Ixom Muzrabshoxovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** Toshkent kimyo-tehnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/10.12.2019.L16.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 23 12 soat 16<sup>04</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel. (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1851 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 18 10 kuni tarqatildi.  
(2025-yil 12 10 dagi 114 raqamli reestr bayonnomasi).



S.U. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d. professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d. dotsent

S.K. Xudeyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Jahon iqtisodiyotining taraqqiyoti jarayonida aksariyat mamlakatlar tomonidan tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali kambag'allikni qisqartirishning muhim dastagi sifatida samarali foydalanilmoqda. AQSH, Xitoy, Buyuk Britaniya, Kanada, Shveysariya, Yaponiya, Germaniya, Norvegiya, Niderlandiya, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa bir qator davlatlarda tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning eng ilg'or tajribalari amaliyotda qo'llanilib kelinadi. Ba'zi bir mamlakatlarda, jumladan, "Sharqiy va Janubiy Sharqiy Osiyodagi ko'plab mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishildi, biroq Sahroi Kabirda, Janubiy Afrikada aholining taxminan 42 foizi hanuzgacha o'ta qashshoqlikda yashaydi<sup>1</sup>". Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning bosh omili sifatida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, tadbirkorlarga shart-sharoitlar yaratish, tadbirkorlik faoliyatlarini rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur bo'ladi.

Jahonda tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning zamonaviy modellari innovatsion va investitsion faoliyatni faollashtirishni boshqarish, mamlakatni va milliy korxonalarini tashqi muhitga doimiy moslashtirish va moddiy, mehnat, intellektual va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ko'p funksional va murakkab o'zaro tizimni rivojlantirishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada birinchi navbatda ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligi, moliyaviy faoliyatning muvaffaqiyati, mahsulotlarning raqobatbardoshligi va ularning sifati va savdo faoliyati samaradorligini oshirishga e'tibor qaratilsada, zamonaviy tendensiya sifatida raqamli iqtisodiyotda tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning zamonaviy ekotizimini hamda tashkiliy mexanizmni yaratish va takomillashtirish bilan bog'liq muammolar doirasida ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar, eng avvalo mulkchilikning davlat sektorida yoki xususiy sektorda bo'lishidan qat'iy nazар ma'lum bir risk asosidagi tadbirkorlik faoliyatini bozor munosabatlarini harakatga keltirishning muhim sharti sifatida qaralmoqda. Xususan, "iqtisodiyot tarmoqlari uchun tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmini shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish, prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash" hamda Yangi O'zbekistonni barpo etishda uning hududlarida tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning mexanizmlariga tayangan holda sifatli ko'rsatkichlarga erishishi o'ta muhim

---

<sup>1</sup> <https://www.un.org/ru/global-issues/ending-poverty>

vazifalardan biri ekanligi mavzuning dolzarbligini izohlaydi hamda ushbu tadqiqot ishini olib borish zarurligini asoslaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi to‘g‘risidagi, 2018-yil 24-noyabrdagi PF-5583-son “Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2018-yil 29-noyabrdagi PF-5587-son “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-iyuldaggi PF-6019-son “Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-son “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2017-yil 19-iyundagi PF-5087-son “Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4862-son “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 29-avgustdaggi 526-son “2020-2021-yillarda iqtisodiy o‘sishni tiklash va iqtisodiyot tarmoqlari hamda sohalarida tizimli tarkibiy islohotlarni davom ettirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 8-yanvardagi 8-son “Respublika hududlarida tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasiga baho berish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma’lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Bir qator ilmiy maqola va monografiyalarda iqtisodiy masalalar qatorida tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning mexanizmlarining zamonaviy xususiyatlari, jahon tajribalari va uni iqtisodiyotga keng qo‘llashning nazariy va amaliy jihatlari yetakchi xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan o‘rganib chiqilgan. Ushbu masalalarning ayrim jihatlari Avanesov A.N., Ansoff I., Balabanov K.T., Balabanov A.I., Gerchikova I.N., Brooke M., Mills W., Chandler A., Day G.S., Robert D. kabi iqtisodchi olimlarning asarlarida ko‘rib chiqilgan va ularning nazariy ilmiy ishlarida tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining jahon iqtisodiyoti bilan o‘zaro uzviylik masalalariga katta e’tibor qaratilgan<sup>2</sup>.

<sup>2</sup> Аванесов А.Н. Правила рынка: иностранные инвестиции, внешняя торговля, трудовая миграция, конкурентоспособность, дипломатия: -М.: Международные отношения, 1994,- 350 с., Ансофф И.

Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning mexanizmlarini ishlab chiqishda tadbirkorlik muhitining shakllantirilishi va qo'llab-quvvatlashning umumiyligi muammolari ko'rib chiqilgan tadqiqotlar orasida Glazunov V.N., Goroxov B., Argenti J., Hirich R.D., Peters M.P., Sandberg W.R., Hofer C.W., Shepherd D., Stenberg E. ilmiy asarlarini qayd etish mumkin<sup>3</sup>. Ushbu nashrlarda asosan tashqi iqtisodiy faoliyat ko'rsatuvchi milliy kompaniyalar faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning mexanizmlari va investitsion resurslar jalb qilish va xalqaro integratsion jarayonlardagi ishtiroki keng yoritilgan.

O'zbekistonda bozor munosabatlarini kengaytirish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda mamlakat eksport salohiyatini oshirishga bag'ishlangan tadqiqot S.S.G'ulomov, SH.N.Zaynudinov, N.Q.Yo'ldoshev, D.S.Qosimova, D.N.Raximova, Q.X.Abduraxmonov, N.X.Jumaev, R.A.Alimov, D.X.Suyunovning ilmiy maqola va monografiyalari chop etilgan<sup>4</sup>. Ushbu ilmiy ishlarda ishbilarmonlik muhiti, milliy iqtisodiyot va tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining turli jabhalari yoritilgan bo'lsada, tanlangan mavzuni yoritishda jahon xo'jalik tizimiga integratsiyalashuvning kuchayishi sharoitida ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning mexanizmlarini takomillashtirish, shu asosda milliy tadbirkorlarni tashqi bozordagi raqobatbardoshligining barqaror holatini ta'minlashga asosiy e'tibor qaratiladi. Xususan, O'zbekiston iqtisodiyotining miqdoriy o'sishi, milliy tadbirkorlik muhitini rivojlantirish va biznes aloqalarining turli davlatlarda tashkil etish va ular rivojining

---

Стратегическое управление: перевод с английского, М.: Экономика, 1998,- 120 с., Балабанов К. Т. Балабанов А. И. Внешнеэкономические связи М.: Финансы и статистика, 1998 - 512 с., Герчикова И.Н. Маркетинг и международное коммерческое дело. М.: Международные отношения, 1990,- 504 с., Brooke M., Mills W. Profits from Abroad: Managing Foreign Business. -L. Kogan Page, 1989, p 218, Chandler A. Strategy and Structure: Chapters in the History of the Industrial Enterprise. Cambridge, L.: MIT Press, 1990, p 463, Day G.S. Tough Questions for Social Responsibility. Ethical Theory and Business, 1979, p 213, Robert D. Hisrich. Entrepreneurship. Boston, MA 02116, 1992, p. 255 с.

<sup>3</sup> Глазунов В.Н. Финансовый анализ и оценка риска рыночных инвестиций. М.: Финстатинформ, 1997,- 136 с., Горохов Б. Стратегия и гибкость управления предприятием: трудный баланс // Проблемы теории и практики управления, 1994.- №4 с. 13-20., Argenti J. Corporate Planning A Practical Guide. Homewood, III. Dow Jones Irvin, 1969, p 178, Brooke M., Mills W. Profits from Abroad: Managing Foreign Business. -L. Kogan Page, 1989, p 218, Chandler A. Strategy and Structure: Chapters in the History of the Industrial Enterprise. Cambridge, L.: MIT Press, 1990, p 463, Sandberg W.R Hofer C.W. The effects of strategy and industry structure on new venture performance. Proceeding, 1986, p. 187, Shepherd D. British Manufacturing Investment Over seas. London, Stenberg E. Steering of Foreign Subsidiaries. Helsinki: Helsinki School of Economics and Business Administration, 1992, p. 234

<sup>4</sup> ЗайнутдиновШ.Н., РахимоваД.Н. Корпоративбошқарув. - Т.: Академия, 2010, 69 бет., ЙўлдошевН.К., МирсаидовА.А., ГолдманЙ.Д. Инновационмене

жмент – Т.: ТДИУ. Дарслик 2011. 286-б., Рахимова Д.Н., Абдурахмонов Қ.Х. ва бошқ. Замонавий менежмент: назария ва амалиёти. Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси. –Т.: Faafur Fулом номидаги нашриёт–матбаа ижодий уйи. 2009, Қосимова Д.С., Собиров А.А. Бошқариш назарияси асослари. ОЎЮ лари учун дарслик. - Т: ТДИУ. 2011, Жумаев Н.Х., Абдурахмонов О.Қ., Жаҳон молиявий-иктисодий инкизори: сабаблари ва уни бартараф этиш муаммолари. „ Монографияя, Академнашр. -2010: 160 б., Алимов Р.А. Конкурентоспособность национальной экономики: критерии, система показателей, факторы развития. Материалы республиканского научного семинара «Проблемы и перспективы конкурентоспособности национальной экономики» Ташкент: 2004 г. – 212с.; Ўзбекистон иқтисодиётининг рақобатбардошлигини ошириш муаммолари: назария ва амалиёт. // С.С. Гуломов таҳрири остида. Т.: «Konsauditinform-Nashr». 2006 й. – 440 б.; Расулов А.Ф. Экспортная ориентация национальной экономики в условиях рыночной экономики трансформации (на материалах Республики Узбекистан): Автореф. дис. док. экон. наук. Ташкент, 1996. – с. 42; Суюнов Д.Х. Замонавий шароитларда Ўзбекистонда корпоратив бошқарув тизими ривожланишининг асосий йўналишлари. // Молия ва банк иши, 2009, №4.

jadallashuvi, chuqurlashuvi va xilma-xilligi, shuningdek, xalqaro mehnat taqsimotiga jalb etilganligi o‘zaro taqqoslash va tahliliy ko‘rsatkichlar, tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning mexanizmlarini takomillashtirish doirasida ilmiy-tadqiqotlar o‘tkazishni va ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni talab etadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-1-son “O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashning ilmiy metodik asoslari va usullarini takomillashtirish” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekistonda tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tazbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning mexanizmlari tizimining nazariy jihatlarini tadqiq qilish;

tazbirkorlik subyektlarining faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni tartibga solish tamoyillarining o‘ziga xos jihatlarini oolib berish;

tazbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning ilg‘or xorij tajribalaridan foydalanish imkoniyatlarini tadqiq qilish;

tazbirkorlik faoliyatini subsidiyalar orqali moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni tahlil qilish;

tazbirkorlik faoliyatini tijorat banklar krediti orqali moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni tahlil qilish;

tazbirkorlik faoliyatini tijorat banklar krediti orqali moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga ta’sir etuvchi omillarni ekonometrik tahlil qilish;

tazbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari oolib berish;

tazbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O‘zbekistonda tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlariga yo‘naltirilgan faoliyati olingan.

**Tadqiqotning predmetini** tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish va prognozlash, mantiqiy va sabab-oqibat tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tazbirkorlik sub’ektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida «AAA» toifa tadbirkorlarga amaldagi miqdorning 100 foizi, «AA» toifa tadbirkorlarga

amaldagi miqdorning 95 foizi, «A» toifa tadbirkorlarga amaldagi miqdorning 90 foizi, «VVV» toifa tadbirkorlarga amaldagi miqdorning 85 foizi, «VV» toifa – amaldagi miqdorning 75 foizi va «V» toifa tadbirkorlarga amaldagi miqdorning 65 foizida subsidiyalar ajratish taklifi asoslangan;

tadbirkorlik sub'ektlarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashni manzilliligi va samaradorligini baholashda tadbirkorlik sub'ektlarining tovar (xizmatlar)ni realizatsiya qilish bo'yicha aylanmasini o'sish sur'ati, ko'rilgan foydasi va olingan dividendlar hajmi hamda davlat ko'magi berilgandan so'ng kiritilgan xususiy investisiyalar hajmi mezonlarini inobatga olish taklifi ishlab chiqilgan;

tadbirkorlik sub'ektlariga davlat tomonidan ajratiladigan barcha turdag'i subsidiyalarni dastlabki ikki yil davomida taqdim etilib, uni baholash natijalari bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlari ijobiy deb topilgan hollarda subsidiyaning amal qilish muddati qo'shimcha bir yilga uzaytiriluvchi «2+1» tamoyili asosida amalga oshirish taklifi asoslangan;

aholi va tadbirkorlik sub'ektlarini tuman va shaharlar kesimida toifalarga bo'lgan holda subsidiyalarni ajratishda bazaviy hisoblash miqdorini 30 baravarigacha belgilash taklifi asoslangan.

### **Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyalashtirishda subsidiya, imtiyoz va preferensiyalarni taqdim etish va maqsadli foydalanish taklif etilgan;

tadbirkorlik subyektlarining aylanma mablag'larini oshirish va yakka tartibdagi tadbirkorlarining yangi ish o'rnlari yaratish bo'yicha taklifi ishlab chiqilgan;

tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan subsidiyalarni dastlabki ikki yil davomida taqdim etish, shuningdek foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlari ijobiy natijalar berganda qo'shimcha yana bir yilga subsidiya ajratish asoslab berilgan;

aholi va tadbirkorlik subyektlariga subsidiya miqdorlarini oshirish orqali ajratish aholini tadbirkorlikka jalg qilish hamda aholi bandligini ta'minlash ishlab chiqilgan;

tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni tizimli monitoring qilish hamda samaradorligini baholash taklifi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning amalda sinovdan o'tkazilganligi, olingan natijalarining vakolati davlat tashkilotlari tomonidan ma'qullanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan xulosa va takliflardan tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning mexanizmlarini mikro/makro darajada tartibga solish, tadbirkorlik biznes muhitini yaratish bo'yicha iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning mexanizmlarini takomillashtirishda “yo'l xarita”lari ishlab chiqish va uni amalga oshirish, tadbirkorlik subyektlari tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni tartibga solishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini, “O'zbekiston – 2030” strategiyasida ko'rsatilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida «AAA» toifa tadbirkorlarga amaldagi miqdorning 100 foizi, «AA» toifa tadbirkorlarga amaldagi miqdorning 95 foizi, «A» toifa tadbirkorlarga amaldagi miqdorning 90 foizi, «VVV» toifa tadbirkorlarga amaldagi miqdorning 85 foizi, «VV» toifa – amaldagi miqdorning 75 foizi va «V» toifa tadbirkorlarga amaldagi miqdorning 65 foizida subsidiyalar ajratish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 dekabrdagi «Tadbirkorlik sub'ektlariga subsidiya, imtiyoz va preferensiyalarni taqdim qilish tartiblarini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-287-sun Farmonini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 11 apreldagi 08/27-4-7891-sun ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi natijasida tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini moliyalashtirishda subsidiya, imtiyoz va preferensiyalarni taqdim etish va maqsadli foydalanish, shuningdek ularni tizimli monitoring qilish hamda samaradorligini baholash imkoniyatini bergan;

tadbirkorlik sub'ektlarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashni manzilliligi va samaradorligini baholashda tadbirkorlik sub'ektlarining tovar (xizmatlar)ni realizatsiya qilish bo'yicha aylanmasini o'sish sur'ati, ko'rilgan foydasi va olingan dividendlar hajmi hamda davlat ko'magi berilgandan so'ng kiritilgan xususiy investisiyalar hajmi mezonlarini inobatga olish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 dekabrdagi PF-287-sun «Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni 7-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 11 apreldagi 08/27-4-7891-sun ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy-amaliy yangilikning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida 2022 yilga nisbatan 2023 yil davomida tadbirkorlik sub'ektlarining aylanma mablag'larini oshirish 18 foizga hamda yaratilgan yangi ish o'rnlari bo'yicha yakka tartibdagi tadbirkorlari soni 50 foiz oshishiga olib kelgan; ;

tadbirkorlik sub'ektlariga davlat tomonidan ajratiladigan barcha turdag'i subsidiyalarini dastlabki ikki yil davomida taqdim etilib, uni baholash natijalari bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlari ijobiy deb topilgan hollarda subsidiyaning amal qilish muddati qo'shimcha bir yilga uzaytiriluvchi «2+1» tamoyili asosida amalga oshirish taklifi 2022 yil 30 dekabrdagi PF-287-sun O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining «Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqlashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni 7-bandni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 11 apreldagi 08/27-4-7891-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi natijasida tadbirkorlik sub’ektlariga ajratiladigan subsidiyalar dastlabki ikki yil davomida taqdim etish, shuningdek foydalanish samaradorlik ko‘rsatkichlari ijobiy natijalar berganda qo‘sishimcha yana bir yilga subsidiya ajratish imkoniyati yaratilib, tadbirkorlik sub’ektlarini qo’llab-quvvatlash maqsadida ajratilgan subsidiyalar 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 18 foizga oshishiga olib kelgan;

aholi va tadbirkorlik sub’ektlarini tuman va shaharlar kesimida toifalarga bo‘lgan holda subsidiyalarni ajratishda bazaviy hisoblash miqdorini 30 baravarigacha belgilash taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlashning tabaqlashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2022 yil 30 dekabrdagi PF-287-son Farmonida 2-ilovasi, 1-band «a», «b» «v» «g» va 2-band «a» kichik bandlari ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 11 apreldagi 08/27-4-7891-son ma’lumotnomasi). Mazkur takliflarni amaliyotga tatbiq etilishi natijasida aholi va tadbirkorlik sub’ektlariga subsidiya miqdorlarini oshirish orqali ajratish aholini tadbirkorlikka jalb qilish hamda aholini bandligini ta’minlash imkon yaratilib, 2023 yilda 2022 yilga nisbatan aholi va tadbirkorlik sub’ektlariga 2,4 baravar ko‘p miqdordagi subsidiya mablag‘i ajratilishi natijasida yangi ish o‘rnlari 1,5 baravarga oshirilishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, jumladan 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya natijalari bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 139 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Dissertatsiyaning kirish qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbliji va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natjalarning ilmiy va amaliy ahamiyati keng yoritib

berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning “**Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning mexanizmlari tizimining nazariy jihatlari, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni tartibga solish tamoyillarining o‘ziga xos jihatlari va tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning ilg‘or xorij tajribalaridan foydalanish imkoniyatlari bayon qilingan.

Zamonaviy iqtisodiyotda “tadbirkorlik” tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, uni turli yo‘nalishlarda ko‘rib chiqish mumkin. Eng umumiy tushuncha sifatida, tadbirkorlikni iqtisodiy kategoriya sifatida aniqlash hamda xavf bilan bog‘liq bo‘lgan mahsulotlar, ishlar, xizmatlarni sotish bo‘yicha mustaqil faoliyat bo‘lib, buning natijasida foyda olish tushuniladi.

Shubhasiz, tadbirkorlik faoliyatining omil daromadi foyda hisoblanadi. Faqat ishlab chiqarish omili sifatida tadbirkorlik qobiliyatidan foydalangan holda va boshqa ishlab chiqarish omillaridan foydalanishning maqbul holatini topgandagina foyda olish mumkin. Tadbirkorlik qobiliyatlarini amalga oshirish biznes jarayonini tashkil etishning samarali usullaridan foydalanish, yangi texnologiyalarni joriy etish va xatarlarni o‘z vaqtida minimallashtirishda namoyon bo‘lishi mumkin.



**1-rasm. Tadbirkorlik faoliyatining asosiy turlari<sup>5</sup>**

Tadbirkorlik iqtisodiyot subyektlarining mavjud iqtisodiy, tabiiy, mehnat va aqliy salohiyatlardan samarali foydalanib yuqori pirovard natijalarga erishishi bilan tavsiflanib, bozor munosabatlari rivojlanishi jarayonida iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi.


Tadbirkorlik faoliyatining mohiyatini ochishda Q.Muftyaydinov tomonidan berilgan ta’rif o‘ziga xosligi va keng qamrovligi bilan ajralib turadi. “Tadbirkorlik

<sup>5</sup> Muallif ishlanmasi

iqtisodiy faoliyatni harakatlantiruvchi kuch sifatida iqtisodiy maxovik bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatini va iste'mol talablarini e'tiborga olgan holda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlaydi"<sup>6</sup>, degan g'oyani ilgari suradi. Ushbu ta'rifda muallif boshqalardan farqli o'laroq tadbirkorlikka iqtisodiy faoliyatni harakatlantiruvchi kuch sifatida takror ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlashi, uning samaradorligi esa turli mexanizmlardan foydalanish darajasiga bog'liq ekanligiga alohida urg'u bermoqda.

U.V.Gafurov "Kichik biznes subyektlari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish shakl va vositalari kichik biznes sohasining rivojlanganlik darajasiga ko'ra o'zgarib, unga mos tushuvchi vositalar qo'llanib borishi lozim"<sup>7</sup> deb ta'kidlab o'tgan. Mazkur yondashuvning mohiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, U.V.Gafurov tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tartibga solishda bevosita davlat ishtirokinning bo'lishini, tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda davlatning ma'lum bir vositalar orqali tartibga solishiga e'tibor qaratilishiga to'xtalgan.

Bizning fikrimizcha, tadbirkorlikning o'z iqtisodiy tabiatini mavjud bo'lib, ushbu mavjudlik uning ikki tomonlama xususiyatida namoyon bo'ladi. Shuingdek, bir jihatdan tadbirkorlik mulkchilik sifatida bo'lsa, ikkinchi tomondan, tadbirkorlik xo'jalikni oqilona yuritish va boshqarishdir.



## 2-rasm. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash shakllari<sup>8</sup>


Davlatning tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni tartibga solishdagi ishtirokinning ulushi uning vakolatli organlari, davlatning o'zi tomonidan va xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'ziga xos ehtiyojlari bilan belgilanadi. Bunga

<sup>6</sup> Muftaydinov Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari. / Dis. ... iqt. fan. d-ri. - T/, 2004. -18-b.

<sup>7</sup> Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. / Dis. avt. ref... iqt. fan. d-ri. - T., 2017. -30-b.

<sup>8</sup> Muallif ishlanmasi

xususiyashtirish bo‘yicha olib borilgan chora-tadbirlarni, ularning faoliyatida, o‘zi belgilashning qulay sharoit yaratishni (lekin jamiyatning manfaatlariga zid emas yo‘nalishlarda) misol qilib keltirish mumkin. Tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni tartibga solish usullarini bevosita (ma’muriy) va bilvosita (iqtisodiy) deb taqsimlash juda kam o‘rganilgan (3-rasmga qarang) va tavsiflovchi xususiyatdir.



### 3-rasm. Mamlakatimiz iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni tartibga solish usullari<sup>9</sup>

Tadbirkorlik subyektlarining maqomini baholashning yagona mezoni va ular faoliyatining barcha yo‘nalishlari va sohalarida oldini olish tadbirlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish zarur. Natijada, davlat zaif tomonlarini bartaraf etish uchun zarur mablag’larni tejaydi, ularning ko‘pchiligi kerakli bo‘lmagan (tavakkalchilik

<sup>9</sup> Muallif ishlanmasi

guruhiga ko‘ra) tadqiq qilishga ko‘p sonli yondashuvlarning takrorlanishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bundan tashqari, zarar ko‘rib ishlaydigan subyektlarning soni va ularni qo‘llab-quvvatlash xarajatlari kamayadi.

Tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimlar orqali amalgalashiriladi, ular (institutsional tipologik xususiyatlari bo‘yicha) tovar-pul va ierarxik mexanizmlarga bo‘linadi. Birinchi mexanizm (tovar-pul) tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga asoslangan bozor va raqobatbardoshlik uchun yaratilgan sharoitlar orqali ta’sir qiladi. Ularning faoliyatiga davlat-huquqiy ta’sirining turli shakllari, usullari va vositalari qo‘llaniladi. Haqiqiy iqtisodiyotda bu mexanizmlar bir-birlari bilan o‘zaro ta’sir o‘tkazib bir-birini to‘ldiradi.

Tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni tartibga solish mexanizmlari tovar-pul va ierarxik usullari bo‘lishdan boshqa iqtisodiy va huquqiy adabiyotlarda bevosita va bilvosita tartibga solish tushunchasi keng tarqalgan. Shunday qilib, bir tomonidan bevosita va ma’muriy usullar bilan, bir tomonidan, bilvosita va iqtisodiy usullar o‘rtasida teng belgisi bor edi. Ayni paytda, ularning paydo bo‘lishining sabablarini o‘rganish juda muhimdir.

Tadqiqotning “**Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash holati tahlili**” deb nomlangan ikkinchi bobida tadbirkorlik faoliyatini subsidiyalar orqali moliyaviy qo‘llab-quvvatlash holati tahlili, tadbirkorlik faoliyatini tijorat banklar krediti orqali moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tahlili va tadbirkorlik faoliyatini tijorat banklar krediti orqali moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga ta’sir etuvchi omillarekonometrik tahlil qilingan.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish hisoblanadi. Xususan, subsidiyalar orqali turli sohalardagi loyihalarni moliyalashtirish manzillilik va samaradorlik tamoyillariga asoslanib amalgalashirilmoqda.

O‘zbekistonda inqiroz ta’sirini yumshatish bo‘yicha bir qator tadbirlar amalgalashirildi hamda kichik biznes va fermer xo‘jaliklariga ijtimoiy soliq stavkasi 12 foizdan 1 foizga tushirildi, 3 oy davomida yer va mol-mulk solig‘idan ozod etildi, investitsiya kreditlari bo‘yicha foizlar qisman davlat tomonidan qoplab berildi.

Ko‘pincha, qo‘llab-quvvatlash choralari samarasiz, chunki ushbu masalaga har tomonlama yondashish hamda kichik va o‘rta biznes ishtirokchilarining fikrini inobatga olgan holda qaror qabul qilish muhimdir.

Shunday qilib, shuni ta’kidlash lozimki, jahon iqtisodiyotida mustahkam o‘rin olishga intilgan mamlakat tomonidan amalgalashirilayotgan chora-tadbirlar milliy ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarga hamda turli davrlar oralig‘ida davlatning o‘ziga ham turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish strategiyasi bir qarashda importni cheklash, ichki ishlab chiqaruvchilarni tashqi bozordagi yirik raqobatchilardan himoyalash sifatida qaralsa ham, pirovardida sanoat ishlab chiqarish bazasini shakllantirish orqali eksportni rivojlantirishga ko‘mak beruvchi siyosat sifatida qarash mumkin.

**1-jadval**

**Tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida  
2021-2024-yillarda ajratilgan subsidiyalarning sohalar kesimida tahlili<sup>10</sup>**

**mlrd.so'm**

<b>Sohalar nomi</b>	<b>Loyiha soni</b>	<b>2021-yil</b>	<b>2022-yil</b>	<b>2023-yil</b>	<b>2024-yil</b>
Qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirish	39	1253,4	472,0	1013,6	948,2
Aholi bandligi va ehtiyojmandlar tadbirkorligi	33	17,3	189,7	425,9	561,5
Chorvachilik, baliqchilik va parrandachilik	14	128,0	623,2	529,7	235,9
Eksport qiluvchi tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash	34	330,2	522,7	637,3	945,6
Turizm sohasini rivojlantirish	7	38,5	58,4	70,0	3,9
Ta'lim sohasini rivojlantirish	15	1301,8	2592,1	2730,4	4018,9
Uy-joy bilan ta'minlash (ijtimoiy qo'llab-quvvatlash)	6	304,7	854,3	1100,0	1624,2
Transport sohasini qo'llab-quvvatlash	1	239,7	341,5	291,7	1409,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisiga yordam	4	0,0	0,0	0,0	1,5
Axborot-kommunikatsiya sohasini qo'llab-quvvatlash	1	0,0	0,0	0,0	2,4
<b>JAMI:</b>	<b>162</b>	<b>3613,7</b>	<b>5654,0</b>	<b>6798,6</b>	<b>9752,1</b>

1-jadval ma'ulmotlari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda 2021-2024-yillar davomida tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida davlat tomonidan subsidiyalar ajratish amaliyoti keng qamrovli tarzda amalga oshirildi. Tahlillardan ma'lum bo'lishicha, to'rt yilda jami 162 ta loyiha uchun 3613,7 mlrd so'mdan 9752,1 mlrd so'mgacha subsidiyalar ajratilgan bo'lib, deyarli 2,7 barobarga o'sishni anglatadi. Ta'lim sohasi subsidiyalar bo'yicha eng ko'p mablag' oluvchi yo'nalish bo'lib, 2021-yilda 1301,8 mlrd so'mdan 2024-yilda 4018,9 mlrd so'mgacha subsidiya olgan. Bu esa, inson kapitaliga qaratilgan davlat siyosatining ustuvorligini tasdiqlaydi. Eksport qiluvchi tadbirkorlar uchun ham davlat ko'magi yil sayin ortib bordi. Xususan, 2021-yilda 330,2 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 945,6 mlrd so'mga etgan. Bu esa, eksportni diversifikatsiya qilish va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Aholi bandligi va ehtiyojmandlar tadbirkorligi uchun ajratiladigan subsidiyalar 2021-yilda 17,3 mlrd so'mdan 2024-yilda 561,5 mlrd so'mgacha

<sup>10</sup> Muallif ishlanmasi

oshgani ijtimoiy tenglik va faollikni ta'minlashdagi davlat siyosati samarasini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim sohalarda subsidiyalar miqdorining pasayishi kuzatildi. Suv xo'jaligi sohasiga 2021-yilda 1253,4 mlrd so'm ajratilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 948,2 mlrd so'mga tushgan. Turizm sohasida esa 2024-yildagi subsidiya miqdori atigi 3,9 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa, e'tiborning boshqa ustuvor yo'nalishlarga qaratilayotganidan dalolat beradi. Transport, uy-joy ta'minoti, hamda Axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohalarida ham subsidiyalar miqdorining ko'payishi sohaviy islohotlarning faollashganini tasdiqlaydi. Xulosa qilish mumkinki, 2021-2024-yillardagi subsidiya siyosati davlatning inson kapitali, eksport salohiyati, ijtimoiy himoya va infratuzilmaviy rivojlanishga ustuvor e'tibor qaratayotganini ko'rsatadi. Subsidiyalar taqsimotida manzillik, samaradorlik va strategik maqsadlar asosiy mezon bo'lib xizmat qilgan.

## 2-jadval

### **Tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2021-2024-yillarda ajratilgan subsidiyalarni vazirlik va idoralar kesimida tahlili<sup>11</sup>**

<b>Vazirlik va idoralar nomi</b>	<b>2021-yil</b>	<b>2022-yil</b>	<b>2023-yil</b>	<b>2024-yil</b>	<b>mldr.so'm</b>
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi	1301,8	2352,6	2259,4	3654,8	
Iqtisodiyot va moliya vazirligi	520,8	885,1	1100,0	1409,9	
Suv xo'jaligi vazirligi	754,4	71,3	430,0	208,2	
Madaniyat va turizm vazirligi	38,5	58,4	70,0	3,9	
Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi	110,1	262,9	556,0	346,1	
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi	0,0	239,5	471,1	24,4	
Qishloq xo'jaligi vazirligi	28,6	4,9	16,7	232,8	
Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi	0,0	0,0	0,0	0,2	
Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi	128,0	515,5	406,5	235,7	
Innovatsion va ixtisoslashgan rivojlantirish qo'mitasi	0,4	113,0	163,2	6,9	
Eksportni rag'batlantirish agentligi	329,8	522,2	639,3	577,4	
Qishloq xo'jaligida xizmatlar ko'rsatish agentligi	118,6	119,9	194,8	22,6	
Yoshlar ishlari agentligi	0,0	0,0	0,0	244,9	
Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi	24,7	72,4	100,0	400,5	
Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi	239,7	341,5	291,7	1578,5	
Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi	18,2	94,7	100,0	29,5	
Raqamli texnologiyalar vazirligi	45,7	45,7	45,7	2,0	
Transport vazirligi	45,7	45,7	45,7	45,7	

<sup>11</sup> Muallif ishlchanmasi

2-jadvalda ko‘rinib turibdiki, 2021-2024-yillarda O‘zbekistonda tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida jami trillionlab so‘m miqdorida subsidiyalar ajratildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur mablag‘lar vazirlik va idoralar o‘rtasida manzilli ravishda taqsimlangan va sohalar bo‘yicha ustuvorlik darajalari aniq ko‘zga tashlangan. Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi eng ko‘p mablag‘ olgan idora bo‘lib, 2021-yilda 1301,8 mld so‘mdan 2024-yilda 3654,8 mld so‘mgacha subsidiya ajratilgan. Bu ta’lim sohasini rivojlantirishga davlat e’tiborining yuqori ekanini tasdiqlaydi. Iqtisodiyot va moliya vazirligiga ajratilgan subsidiyalar ham yil sayin ortib borib, 2024-yilda 1409,9 mld so‘mga yetdi. Bu mablag‘lar orqali turli davlat dasturlari, jumladan, tadbirkorlikni rag‘batlantirish mexanizmlari markazlashtirilgan tarzda moliyalashtirildi. Ajratilayotgan mablag‘lardagi nomutanosibliklar ayrim sohalarda ko‘zga tashlandi. Xususan, Suv xo‘jaligi vazirligi 2021-yilda 754,4 mld so‘m mablag‘ olgan bo‘lsada, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 71,3 mld so‘mgacha pasaygan, keyingi yillarda esa barqaror emasligini ko‘rsatadi. Eksportni rag‘batlantirish agentligiga ham katta miqdordagi mablag‘lar yo‘naltirilgan bo‘lib, 2021-yilda 329,8 mld so‘mdan 2023-yilda 639,3 mld so‘mgacha oshgan. Bu eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tadbirkorlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlarni aks ettiradi. Alohida shuni ta’kidlash joizki, 2024-yilda Yoshlar ishlari agentligi ilk bor 244,9 mld so‘m subsidiya olgan. Bu yoshlar tadbirkorligini rag‘batlantirish, ularni iqtisodiy faollikka jalg qilish siyosatining amaliy namoyon bo‘lishi sifatida qaraladi. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga 2021-yilda 239,7 mld so‘m ajratilgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu miqdor 1578,5 mld so‘mga yetgan. Bu esa hududiy tenglik va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan harakatlar samarasini ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda, 2021-2024-yillardagi subsidiyalar siyosati davlatning ijtimoiy yo‘naltirilgan, strategik va manzilli iqtisodiy siyosatini namoyon etmoqda. Mablag‘lar ustuvor sohalarga yo‘naltirilgan bo‘lib, ta’lim, eksport, hududiy rivojlanish va yoshlar tadbirkorligiga alohida e’tibor berilgan.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirishni kompleks qo‘llab-quvvatlashning “uzluksiz zanjirini” yaratish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Shu bilan birga, iqtisodiyotning yangi texnologiya va innovatsiyalarga asoslangan, sifatli hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqaruvchi bo‘g‘ini bo‘lgan o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash instrumentlari yetarlicha yaratilmasdan qolmoqda.

Moliya bozorida resurslarning yuqori foiz stavkalari saqlanib qolayotgan sharoitda tadbirkorlik loyihibarini moliyalashtirishning yangicha va muqobil instrumentlarini yaratishga, xususan tadbirkorlik loyihibariga ulush kiritish va xizmatlar ipotekasini joriy etishga, kafillik yordamini taqdim etishni kengaytirishga ehtiyoj ortmoqda.

Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta‘minlash, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda Jamg‘arma faoliyatini jahon tajribasi asosida tashkil etish va tadbirkorlik subyektlariga ko‘maklashish bo‘yicha kompleks tizimni yaratish maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligi ta’sischiligidagi

“Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati shaklida qayta tashkil qilindi.

**3-jadval**

**“Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ tomonidan  
2018-2024-yillarda kafillik asosida ko‘rsatilgan moliyaviy yordam<sup>12</sup>**

**mlrd.so‘m**

<b>Hududlar nomi</b>	<b>Kafillik - tadbirkor</b>	<b>loyiha</b>	<b>ish o‘rni</b>	<b>yordam</b>	<b>kredit</b>	<b>yordam ulushi</b>
Xorazm viloyati	1 108	1 178	12 894	1 315	3 219	13%
Toshkent viloyati	855	897	9 955	991	2 644	10%
Toshkent shahar	663	705	8 263	917	2 463	9%
Buxoro viloyati	967	1 031	9 347	855	2 554	8%
Andijon viloyati	1 132	1 179	22 479	833	1 947	8%
Surxondaryo viloyati	977	1 016	11 400	708	1 862	7%
Farg‘ona viloyati	1 252	1 318	14 362	724	2 100	7%
Samarqand viloyati	885	931	8 122	576	1 413	6%
Jizzax viloyati	780	817	7 742	633	1 635	6%
Qashqadaryo viloyati	1 406	1 460	9 281	594	1 524	6%
Namangan viloyati	942	969	10 099	556	1 267	5%
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	655	702	6 694	608	1 395	6%
Sirdaryo viloyati	684	717	9 027	557	1 300	5%
Navoiy viloyati	503	531	5 785	432	1 077	4%
<b>JAMI</b>	<b>12 809</b>	<b>13 451</b>	<b>145 450</b>	<b>10 300,1</b>	<b>26 401,4</b>	<b>100%</b>

3-jadval ma’lumotlarida, 2018-2024-yillar davomida “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ tomonidan respublika bo‘yicha jami 12 809 nafar tadbirkorlik subyektiga kafillik asosida moliyaviy yordam ko‘rsatilgan. Mazkur yordam 13 451 ta loyihami qamrab olgan holda 145 450 ta yangi ish o‘rnlari yaratilishiga xizmat qilgan. Umumiy hisobda 10,3 trln so‘mlik kafillik yordami, shu bilan birga 26,4 trln so‘mlik bank kreditlari jalb etilgan bo‘lib, bu iqtisodiyotning real sektoridagi faol tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashda muhim instrument sifatida xizmat qilgan. Xususan, Qashqadaryo viloyati eng ko‘p tadbirkorga kafillik qilgan 1 406 va 1 460 loyiha bilan ajralib turadi. Farg‘ona viloyati esa, 14 362 ish o‘rni yaratgan bo‘lib, ish o‘rni yaratish bo‘yicha yetakchi hisoblanadi. Shuningdek, Andijon viloyati 22 479 ish o‘rni bilan barcha hududlardan ustun, bu esa yoshlar va xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash siyosatining ifodasidir. Biroq, Xorazm viloyati esa, umumiy kafillik asosida moliyaviy yordamning 13% hissa

<sup>12</sup> Muallif ishlanmasi

bilan birinchi o‘rinda turganligini ko‘rsatadi. Kafillik asosida ko‘rsatilayotgan moliyaviy yordam tadbirkorlik subyektlarini bank kreditlarini olish imkonini kengaytirish, ish o‘rinlari yaratish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Ammo, hududlar o‘rtasidagi tafovutlar mazkur siyosatning yetaricha teng va manzilli taqsimlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

#### 4-javdal

#### “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ tomonidan 2018-2024-yillarda kompensatsiya asosida ko‘rsatilgan moliyaviy yordam<sup>13</sup>

mlrd.so‘m

Hududlar nomi	Kompensatsiya tadbirkor	loyiha	ish o‘rni	yordam	kredit	yordam ulushi
Xorazm viloyati	2 095	3 534	19 445	763	4 862	11%
Toshkent viloyati	2 044	2 938	15 352	656	4 792	9%
Toshkent shahar	1 792	2 005	18 487	603	6 389	9%
Buxoro viloyati	1 935	1 886	18 687	608	5 142	10%
Andijon viloyati	2 518	3 046	20 436	514	3 635	9%
Surxondaryo viloyati	1 350	1 471	13 234	469	2 761	6%
Farg‘ona viloyati	3 071	3 640	20 454	433	3 319	7%
Samarqand viloyati	3 585	3 889	21 020	506	4 443	8%
Jizzax viloyati	1 932	2 174	15 023	387	2 796	6%
Qashqadaryo viloyati	2 742	3 009	20 099	436	2 946	6%
Namangan viloyati	2 291	2 482	16 769	382	2 565	6%
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 129	1 271	9 275	309	2 090	5%
Sirdaryo viloyati	767	820	10 481	233	1 778	4%
Navoiy viloyati	1 334	1 570	9 812	261	1 464	4%
<b>JAMI</b>	<b>29 953</b>	<b>33 507</b>	<b>232 110</b>	<b>6 650,23</b>	<b>49 389,89</b>	<b>100%</b>

4-javdal tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2018-2024-yillar davomida “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ orqali foiz xarajatlarini qoplash mexanizmi asosida tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash siyosati amalga oshirildi. Mazkur chora-tadbirlar tadbirkorlarning bank kreditlariga yetishi va yangi ish o‘rinlari yaratishini rag‘batlantirdi. Xususan, 2018-2024-yillarda 29 953 nafar tadbirkorni qamrab olgan, 33 507 ta loyiha amalga oshirilgan, 232 110 ta yangi ish o‘rni yaratilgan, 6,65 trln so‘m kompensatsiya to‘langan va 49,4 trln so‘mlik kredit mablag‘lari iqtisodiyotga jalb etilgan. Yetakchi hududlar Xorazm viloyatiga 763 mlrd so‘m yordam, xususan 11% ulush, biroq Samarqand, Andijon va Farg‘ona viloyatlari loyihalar va ish o‘rinlari soni bo‘yicha yetakchi bo‘lib, shuningdek, Samarqand viloyatida 21 mingdan ortiq ish o‘rni va 506 mlrd so‘m kompensatsiya

<sup>13</sup> Muallif ishlanmasi

ajarilgan. Navoiy va Sirdaryo har biri 4% ulushdan kam va Qoraqalpog'iston Respublikasi esa, 309 mlrd so'm, 5% ulush moliyalashgan hisoblanadi. Xulosa qilib shuni aytish joizki, kompensatsiya mexanizmi kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, ish o'rnlari yaratish va moliyaviy imkoniyatlar yaratishda samarali vosita bo'lib xizmat qildi. Hududlar kesimidagi tafovutlarni bartaraf etish va imkoniyatlarni tenglashtirish orqali dastur samaradorligini yanada oshirish imkoniyatini yaratadi.

## 5-javdal

### “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ tomonidan 2018-2024-yillarda tadbirkorlarga ko'rsatilgan moliyaviy yordam<sup>14</sup>

*mlrd.so'm*

Hududlar nomi	Jami tadbirkor	loyiha	ish o'rni	yordam	kredit	Yordam ulushi
Xorazm viloyati	4 722	4 722	32 345	2 084	8 087	12%
Toshkent viloyati	2 908	3 144	25 307	1 652	7 441	10%
Toshkent shahar	2 455	2 710	26 750	1 521	8 852	9%
Buxoro viloyati	3 507	3 923	26 167	1 548	7 697	9%
Andijon viloyati	3 419	3 697	56 736	1 368	5 750	8%
Surxondaryo viloyati	2 329	2 489	24 824	1 181	4 628	7%
Farg'ona viloyati	4 324	4 959	34 819	1 157	5 420	7%
Samarqand viloyati	4 476	4 826	29 174	1 086	5 861	6%
Jizzax viloyati	2 714	2 993	22 773	1 024	4 434	6%
Qashqadaryo viloyati	4 153	4 474	21 906	974	4 016	6%
Namangan viloyati	3 235	3 453	26 969	938	3 833	6%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 785	1 975	15 979	917	3 485	5%
Sirdaryo viloyati	1 455	1 538	19 489	801	3 079	5%
Navoiy viloyati	1 840	2 104	14 723	733	3 242	4%
<b>JAMI:</b>	<b>42 810</b>	<b>47 007</b>	<b>377 942</b>	<b>16 983,7</b>	<b>75 826,35</b>	<b>100%</b>

5-javdal ma'lumotlarida 2018-2024-yillar davomida “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ tomonidan kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 16,98 trln so'm miqdorida moliyaviy yordam ajratildi. Mazkur mexanizm asosida 42 810 nafar tadbirkor 47 007 ta loyiha bo'yicha mablag' bilan ta'minlanib, 377 942 ta yangi ish o'rnlari yaratildi.

